



## ONA TILI DARSLARINI O'QITISHDA GAP BO'LAKLARI TASNIFI IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLAR

**Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tili guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7976557>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 22-May 2023 yil  
Ma'qullandi: 24-May 2023 yil  
Nashr qilindi: 27-May 2023 yil

### KEY WORDS

Uyushiq bo'laklar, bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar, aniqlovchili birikma, holli birikma, sodda va qo'shma so'zlar.

### ABSTRACT

*Maqolada ona tili darslarini o'qitishda gap bo'laklari tasnifi, shuningdek, ikkinchi darajali bo'laklarning gap tarkibida qo'llanilishi yuzasidan mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, maqolada kesim va kesimlik shakllarining gapda so'zlar bilan ifodalanishi, qolaversa, ikkinchi darajali bo'laklar: to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol kabilarning ifoda xususiyatlari ochib berilishida so'zlar, so'z birliklarining ahamiyati yuzasidan qarashlar mavjud. Gap bo'laklarining ifodalanishi yuzasidan o'tli va fe'lli birikmalar, so'z qo'shilmalari hamda ularning tahlili yuzasidan ma'lumotlar mavjud.*

Gapda so'zlarning ifodalanishi mazmun-mohiyatga nisbatan o'zaro gap bo'laklarining aloqadorligida yuzaga keladi. Shuningdek, har bir gap bo'lagining aloqaga kirishuvi yuzasidan so'zlashuv nutqining shakllanishida ahamiyat kasb etadi. Gap bo'laklarining gap tarkibida kelish yoki kelmasligiga ko'ra sodda gaplar va qo'shma gaplarga bo'linadi. Gap bo'laklari bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar bilan aloqadorlikni yuzaga keltiradi. Gap bo'laklarining shakllari shaxs son, zamon birliklari bilan aloqadorlikni tashkil etadi. Gap bo'laklarining gapda qo'llanilishi yuzasidan bildirilgan nazariy qarashlar asosan, kesimning atrofida birlashuvchi gap bo'laklari bilan bog'liqlikni yuzaga keltiradi. Hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi kabi gap bo'laklari asosan, aloqaga kirishuvda kelishik qo'shimchalarining vazifasi katta bo'lib, gap bo'laklarini bitishuv, boshqaruv, moslashuv tarzda qo'llanilishi mumkin. Shu asosda -ning kelishik qo'shimchasi i egalik qo'shimchasi bilan aloqaga kirishuvi moslashuvli gap bo'laklarini yuzaga keltiradi. -ga, da, dan kabi kelishik qo'shimchalarining ifodalanishi esa boshqaruvli gap bo'laklarini yuzaga keltiradi. Gapda ikkinchi darajali gap bo'laklari bilan birgalikda, bosh bo'laklarning ham qo'llanilishi kuzatiladi.

Gap bo'laklari va ularning tasnifi, qo'llanilish o'rinlari o'zbek tili va boshqa tillarda izohlanishiga ko'ra o'xshashlikni tashkil etadi. "O'zbek va ingliz tillarining har ikkisida ham besh xil gap bo'laklari mavjud bo'lib, ushbu gap bo'laklari tartibi bir-biriga taqqoslansa, ular o'rtasida o'xshashlikdan ko'ra tafovut ko'pligini ko'rish mumkin. Shuning uchun ko'pchilik talabalar tarjima qilish paytida qiyinchiliklarga duch keladilar. Har bir tilda so'z tartibi qat'iy belgilangan qoidalarga asoslangan. Gap bo'laklari o'rnini har kim o'z bilganicha o'zgartira olmaydi. Shu bois gap tuzishda har bir tilning o'z Grammatik qoidalaridan kelib chiqishi

lozim”. [1] Bugungi kunda gap bo'laklarning boshqa gap bo'laklari bilan aloqaga kirishuvi va ularning o'zaro turli xil sintaktik jihatdan bog'lanishi har xil turdagi gaplarning yasalishiga olib keladi bunda asosan biz ko'rishimiz mumkin xabar maylidagi, istak maylidagi, shart maylidagi gaplar va boshqalarda. O'zaro gaplarning shakllanishidagi kesim asosiy o'rin tutib pretekativlik vazifasini o'zaro mutonosib ravishda bog'lanishi shu bilan birgalikta kundalik turmush sharoitimizda keng qo'llanuvchi so'zlarning ham o'zaro bog'lanishi turli xil so'z o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Bunda, asosan, so'zlarning tushib qolishi o'zgarishlari yoki tovush ortishi gap bo'laklarning ham gapdagi vazifasiga mazmun-mohiyatiga qarab o'zaro aloqadorligini kasb etadi. Shuni aytib o'tish mumkinki, amaliy va nazariy qarshlar bugungi kunda ham bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar o'rtasidagi o'zaro munosabtni ham shakllantirishga yordam beradi.

“Bizga ma'lumki gapning grammatik qurilish asosini kesim tashkil etadi. Kesim, asosan, fe'l turkumiga oid so'zlardan ifoda topadi. Shunday ekan, gapni tarkib toptirgan birikmalarning ko'pchiligi bo'laklarni mana shu fe'l-kesim boshqaruvida tarkib toptirgan bo'ladi. Tilshunos olim A. G. Gulomov ham kesimni gapning uyushtiruvchi, tarkib toptiruvchi bo'lagi sifatida talqin qiladi”. [2] Gap bo'laklardagi aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabilar o'zlarining gapning mazmun-mohiyati hamda kompanetlardan qat'iy nazar o'zining yo'nalishi so'roqlari qo'shimchalari bilan izohlanadi. Bunda, asosan, to'ldiruvchi sifatidagi gap birliklarining shakllanishida xizmat qiladigan asosiy tushum kelishigi qo'shimchalari yoki kim bilan, nima bilan, kim uchun, nima uchun va boshqa shunga o'xshagn gap bo'laklaridagi to'ldiruvchilarni shakllantiruvchi asos vazifasini bajaruvchi qo'shimchalar ham mavjud. Ayni shunday holatda kishilik jamiyatimizda harakat va holatning paytini, makonini bildiruvchilar asosan, hol bilan amalga oshirilib, bunda vaziyat yoki o'rin payt holi bilan izohlanadi. Ushbu holatni quyidagicha izohlash mumkinki, gap bo'laklarini shakllantirishda to'g'ridan-to'g'ri kelishik qo'shimchalari bilan mutonosib ravishda aloqaga kirishadi har bir kelishik qo'shimchasining ularga qo'shilish natijasida ma'lum so'roq hosil bo'ladi. Misol uchun: qayerda? qayerdan? kimda? nimada? nima qildi nima qilyapti va boshqa shunga o'xshagn holatlarda ham yuzaga keladi. Gapning asosiy qismi bu kesim doirasida shakllangan bo'lib, ega bilan muntazam ravishda aloqada bo'ladi. Birgina kesimning o'ziga nisbatan biz gap bo'lagi bo'la olishi xususida so'z yuritdik, biroq, u asosan, keyingi holatlarda ega bilan ham aloqadorlikni kasb etadi. Bunda, birinchi va ikkinchi darajali gap bo'laklarining ham o'zaro xususiyatlari sezilib turadi. Gap bo'laklarining shakllanishi va imloviy ifodasining talaffuz me'yorlaridagi tuslanish, turlanish xususiyatiga zamon mayl shaxs-son ulardan tashkil topishi bilan ham ahamiyatlidir.

Gap bo'laklarining ifodalanishi va shakllanishida asosiy rol o'ynaydigan bu asosiy gapning markazlaridan biri kesimdir. Gap bo'laklari orasida kesimning ifodalanishi, shaxs-son, zamon, mayl va boshqa qo'shimchalar bilan o'zaro aloqadorlikda gapda asos vazifasini bajaradi. Gap bo'laklari va bosh bo'laklari o'zaro aloqadorlikda gapning mazmunini keltirib chiqaradi. Bunda, harakat va holat bajaruvchisining o'zaro hatti-harakatiga nisbatan darak gaplar, so'roq gaplar bilan ifodalanish haqida so'z yuritdik. Ko'p holatlarda kuzatishimiz mumkinki, shaxs-son, zamon, mayl va boshqalar ham kesimlik shaklda katta ahamiyat kasb etadi. Eganing esa boshqa ikkinchi darajali bo'laklar va bosh bo'laklar bilan aloqadorlikka kirishuvida ham tabiiy holat sifatida qaraladi. Bunda, asosan, eganing to'ldiruvchi bilan, eganing aniqlovchi bilan, eganing hol bilan va boshqa birliklar bilan ifodalanishi mumkin. Aytish mumkinki, ajratilgan

bo'laklari, tobe bo'laklar va hokim qismlar ham gap bo'laklari bilan o'zaro bir butunlikni hosil qilib, ko'p holatlarda ot, sifat, son va shunga o'xshashlar bilan birgalikda keladi. Quyidagicha izohlash mumkinki, aniqlovchi har ikki turiga sifatlovchi va qaratqichli aniqlovchilar ham gapda o'z o'rnini va sifat qarovchiga qarshi egadir. Bunda, asosan, izohlovchilar tarkib jihatdan bog'lanilishi va o'zaro aloqadorligiga ega. Gap bo'laklarining shakllanishi hol va turli so'z turkumlari ravish va ravishdosh orqali ham amalga oshiriladi. Qadimgi manbalarda ham gap bo'laklarining turli o'rinlarda kelinishi uchragan va gap bo'laklari aloqaga kirishuvchi turli qo'shimchalar va ularning klassifikatsiyasi ham bugungi kunda gap bo'laklarining tarkibi asosida aloqadorlikni yuzaga keltiradi. Gap bo'laklari birnecha va gap tarkibida kelishiga ko'ra uyushiq bo'laklarni tashkil etadi. Bunda, asosan, bir turdagi gap bo'laklarining uyushib kelishish natijasida uyushiq bo'laklar hosil bo'ladi. Shuni aytishimiz mumkinki, gap bo'laklari va bosh bo'laklar hamisha gapning asosiy qismi mohiyatini shakllantiruvchi dasturiy vosita sanaladi. Ega va kesimning aloqadorligi ham mana shu jihatda yorqin tarzda amalga oshiriladi. Harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh va aniqlovchi, to'ldiruvchilar birgalikda gapning asosiy strategik funksional vazifasini bajarib ergashgan qo'shma gaplar yoki bosh gaplar tarkibida ham atoqli otlar bilan birgalikda ham va mana shunga o'xshagan turli holatlarda gap bo'laklari yorqin tarzda asos etadi. Gap bo'laklarining bir necha o'rinida kelishi va sodda tarkibda kelishiga ko'ra sodda gaplar va murakkab gaplarga bo'linadi. Sodda gaplarga nisbatan murakkab gaplar tarkibida gap bo'laklarining soni bir nechani tashkil etib, ularning ichida ajratilgan bo'laklar, uyushiq bo'laklar va aloqaga kirishmaydigan barcha bo'laklar ham bo'lishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soatova Malika Sayfitdinovna. "O'zbek va ingliz tillarida gapning bosh bo'laklari tartibi" maqola. Academic research in educational sciences – 2021
2. Mirzakarimova Z. D, Abriyeva N. I. "Kesim-gapning uyushtiruvchi, tarkib toptiruvchi bo'lagi". Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya - konferensiya. 2022